

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti**  
“Pedagogika” kafedrasi, PhD  
**Samatova Dilrabo Yusufovna taqrizi**  
ostida

**Yusupova Ziyoda Ikrom qizi**  
Guliston Davlat Pedagogika Instituti  
Pedagogika yo‘nalishi magistranti  
Email:yusupovaziyoda2001@gmail.com  
ORCID ID- 0009-0000-5074-1091

---

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhimligi va buni amalga oshirish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda ijodiy faoliyatning o‘quvchilarining bilim olish jarayoniga ta’siri, o‘qituvchilarining roli, innovatsion metodlar va erkin ifodaning ahamiyati o‘rganilgan. O‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning fikrlash doirasini kengaytirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish va ijodiy salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Tadqiqotda ilgari surilgan metodlar va tavsiyalar boshlang‘ich ta’limda ijodiy qobiliyatlarni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, ijodiy qibiliyatlar, ta’lim metodlari, innovatsion pedagogik usullar, fikr va ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni, o‘qituvchining roli, kreativ faoliyat, o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ta’limda interfaol metodlar.

**Abstract:** This study analyzes the importance of developing the creative abilities of primary school students and the ways of doing it. The research examines the influence of creative activities on the learning process of students, the role of teachers, innovative methods and the importance of free expression. By developing students' creative abilities, it is possible to expand their thinking, increase their ability to solve problems, and raise their creative potential to a higher level. The methods and recommendations put forward in the research serve to effectively develop creative abilities in primary education.

**Key words:** Primary class, creative abilities, educational methods, innovative pedagogical methods, thought and creative thinking, educational process, teacher's role, creative activity, student motivation, interactive methods in education

**Аннотация:** В данном исследовании анализируется важность развития творческих способностей учащихся начальных классов и способы этого. В исследовании рассматривается влияние творческой деятельности на процесс обучения учащихся, роль преподавателей, инновационные методы, а также важность свободы самовыражения. Развивая творческие способности учащихся, можно расширить их мышление, повысить способность решать проблемы, поднять на более высокий уровень творческий потенциал. Выдвинутые в исследовании методы и рекомендации служат эффективному развитию творческих способностей в начальном образовании.

**Ключевые слова:** Начальный класс, творческие способности, методы обучения, инновационные педагогические методы, мышление и творческое мышление, учебный процесс, роль учителя, творческая деятельность, мотивация учащихся, интерактивные методы в образовании.

## **Kirish**

Biz bilamizki,o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy maktabdan boshlanadi. Shu boisdan 2019-yil 26-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirdari togrisida“gi qaror qabul qilindi.Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarnng kamida 3 foizi, 2025- yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini, zamonaviy maktablarga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.[1]

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish — bu o‘quv jarayonini faol va samarali tashkil etishning muhim jihatlaridan biridir. Ijodiy fikrlash va qobiliyatlarni rivojlantirish texnologiyalari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va o‘zini ifoda etish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Ijodiy qobiliyat — bu o‘quvchining yangi, original g‘oyalarni yaratish va ularga asoslanib amaliy natijalar olish imkoniyatidir. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy fikrlash va qobiliyatlarining rivojlanishi o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Ijodiy qibiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma’lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar izlanishlar olib borganlar. Insonning imkoniyatlarini o‘rganishga sharq mutafakkirlari (Farobi, Beruniy, Abu Ali ibn Sino),, Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananev, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev), G‘arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, U.Ollport, K.Rodgers) kabilalar katta xissa qo‘sghanlar. Ushbu muammo ustida Uzbekiston psixolog olimlari (E.G‘oziey, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Kodirov, V.A.Tokareva va boshqalar) ham izlanish olib borganlar.

Farobi “Fozil odamlar shahri ” asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. [2]

J.Guilfordning fikriga ko‘ra ijodiy fikrlashning xususiyatlari quydagilar: O‘ziga xoslik, g‘ayrioddiy g‘oyalar; Semantik moslashuvchanlik-ob‘ektni turli nuqtai nazardan ko‘rish qobiliyati; Majoziy moslashuvchanlik-ob‘ektning yashirin tomonlarini ko‘rish uchun idrokini o‘zgartirish qobiliyati; Noma'lum vaziyatda turli g‘oyalarni ishlatish qobiliyati deb sanab o‘tgan. [3]

O‘quvchilarga ko‘p tajriba, amaliy mashqlar va muammolar orqali ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishni o‘rgatish zarur. Bu nazariyada, o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga amaliy faoliyatlar va yaratish uchun imkoniyatlar berish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin[4]

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.[5]

## **Tadqiqot metodologiyasi**

## **Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish texnologiyalarining asosiy turlari**

### **1. O‘yin texnologiyalari:**

O‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki ijodiy fikrlash va yechimlar topish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Masalan, «So‘zlar o‘yinlari», «Qiziqarli savollar», «Piktogrammalar» kabi o‘yinlar ijodiy fikrni rivojlantirishga yordam beradi.

### **2. Loyiha faoliyati:**

O‘quvchilar muayyan loyiha ustida ishlash orqali yangi g‘oyalarni ishlab chiqadilar. Ular turli manbalarni o‘rganib, yangi mahsulot yoki g‘oyalarni yaratadilar. Bu metod ijodiy va amaliy fikrlashni rag‘batlantiradi. Misol: "Tabiatni asrash" mavzusida loyiha yaratish, bu o‘quvchilarni ijodiy yondashuvga va jamoada ishlashga undaydi.

### **3. Kreativ yozish va hikoya qilish:**

O‘quvchilarni hikoya qilishga undash, ularning tasavvurlarini rivojlantiradi va o‘z fikrlarini yaratishga yordam beradi. Misol uchun, «Kechasi yulduzlar orqasida nima bo‘ldi?» kabi mavzuda hikoya yozish.

### **4. Konspektlar va kartalar:**

O‘quvchilarga o‘z bilimlarini ko‘rsatuvchi konspektlar, mavzu xaritalari va diagrammalarni yaratishni o‘rgatish, ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

### **5. Interaktiv texnologiyalar:**

Multimedia vositalari, kompyuter dasturlari va taqdimotlar orqali o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlarini taqdim etishlari mumkin. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

### **6. Kreativ matematika va mantiqiy o‘yinlar:**

Masalan, problemали vazifalar va mantiqiy o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning ijodiy yondashuvni va analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu o‘quvchilarga yangi va muammolarni yaratishda ijodiy yondashuvni o‘rgatadi.

## **Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda metodik yondashuvlar**

### **1. Faol ta’lim metodlari:**

O‘quvchilarning aktiv ishtirokini ta’minalash uchun interaktiv darslar, rolli o‘yinlar va guruqli faoliyatlardan foydalanish. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini o‘rtoqlashadilar, yangi g‘oyalarni ishlab chiqadilar.

### **2. Ochiq va yopiq savollar metodikasi:**

O‘quvchilarga mavzular bo‘yicha ochiq savollar berish, bu orqali ular o‘z ijodiy fikrlarini rivojlantiradilar. Misol uchun: «Agar siz o‘quv kitobining muallifi bo‘lsangiz, hikoyaning davomida nima o‘zgartirardingiz?» kabi savollar.

### **3. Tasavvurga asoslangan mashg‘ulotlar:**

O‘quvchilarga tasavvur qilishga asoslangan faoliyatlar taklif qilish, masalan, «Fazoga sayohat» mavzusida tasavvur qilib, hikoya yaratish. Bu usul ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

### **Natijalar**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’lim jarayonining interfaol va yaratishlarga yo‘naltirilgan uslublari samarali natijalar beradi.

O‘quvchilarga ijodiy faoliyatni tashkil qilish, ularni turli turdagи kreativ faoliyatlarga jalb etish, masalan, hikoya yozish, rasm chizish, qo‘shiqlar yaratish yoki teatr ijrosida ishtirok etish, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

O‘quvchilarga erkin ifoda qilish imkoniyatini berish, ularning o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini oshkor qilishiga yordam beradi.

### **Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli**

O‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy yo‘naltiruvchi bo‘lib xizmat qiladi. U o‘quvchilarga:

- O‘ylash jarayonlarini boshqarish,
- Fikr almashish va muhokama qilishni rag‘batlantirish,
- Yangi g‘oyalalar yaratishda yordam berish,
- Amaliy faoliatlarda ishtirok etishni tashkil etish zarur.

O‘qituvchi darslarni qiziqarli va har tomonlama rivojlantiruvchi tashkil etishi lozim.

### **Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar**

- **O‘qituvchining metodik mahorati:** O‘qituvchining innovatsion metodlarni qo‘llash va ijodiy yondashuvni ta’minlashdagi qobiliyati.
- **Sinfdagи muhit:** Sinfda o‘quvchilarga erkin fikr bildirish imkoniyati yaratilishi zarur.
- **O‘quv materiallari:** Ijodiy fikrni rivojlantirish uchun zamonaviy va qiziqarli o‘quv materiallari tanlanishi kerak.

### **Xulosa**

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli texnologiyalar va metodlardan foydalanish zarur. O‘quvchilarni yangi g‘oyalalar yaratishga, mustaqil fikrlashga va turli vazifalarni ijodiy tarzda hal qilishga undash muhimdir. Bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, nafaqat ularning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularni yangi bilimlar izlashga undaydi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Yangi va interfaol metodlarni (guruh ishlari, kreativ darslar, tanqidiy fikrlash) qo‘llash, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularning o‘zgaruvchan dunyoga moslashishini ta’minlaydi.

**REFERENCES:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4537-son 26.11.2019-T.:2019 //<https://lex.uz/docs/4613683>
2. Abu Nasr Farobi —Fozil odamlar shaxri tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 320 b
3. J.Guilford. “The Nature of Human Intelligence”, McGraw-Hill Press.1967
4. “The Language and Thought of the Child”, Harcourt, Brace & World. 1923
5. Jumayeva H.G.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari//TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR xalqaro ilmiy-metodik jurnal.-2023.-T. -N-1 236-bet